

**O'ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK G'OYALARINING TARIXIY  
ASOSLARI**

*Boyto'rayev Sirojiddin*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*o'qituvchisi*

*Ahmadjonov Diyorbek Abdusalom o'g'li*

*Mirzamatov Ilxomjon Salimjon o'g'li*

*Karimjonov Miraxmad Yusufjon o'g'li*

*DTPI Pedagogika fakulteti*

*Jismoniy madaniyat talabalari:*

*[Akhmedovdiyorbek7@gmail.com](mailto:Akhmedovdiyorbek7@gmail.com)*

**ANNOTATSIYA**

O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilgan ijtimoiy o'zgarishlar tahlil qilinadi. Ijtimoiy sohada ro'y berayotgan yangilanishlar, aholining hayot tarzining yaxshilanishi va ijtimoiy xizmatlar sohasidagi islohotlar kuzatiladi. Maqola ijtimoiy o'zgarishlarning iqtisodiy, madaniy va siyosiy jihatlari bilan bog'liq jarayonlarga ham baxo beradi.

**Kalit so'zlar:** Ijtimoiy o'zgarishlar, Islohotlar, Ijtimoiy xavfsizlik, Aholining hayot tarzi, Ta'lim, Sog'liqni saqlash

**АБСТРАКТНЫЙ:**

Анализируются социальные изменения, произошедшие в Узбекистане за последние годы. Наблюдаются обновления в социальной сфере, улучшение образа жизни населения и реформы в сфере социальных услуг. В статье также рассматриваются процессы, связанные с экономическими, культурными и политическими аспектами социальных изменений.

**Ключевые слова:** Социальные изменения, Реформы, Социальная безопасность, Образ жизни, Образование, Здравоохранение

**ABSTRACT:**

The social changes implemented in Uzbekistan in recent years are analyzed. Updates in the social sphere, improvement of the lifestyle of the population and reforms in the field of social services are observed. The article also examines the processes related to economic, cultural and political aspects of social changes.

**Key words:** Social changes, Reforms, Social security, Lifestyle of the population, Education, Health care

**Kirish**

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng, ijtimoiy sohada muhim o'zgarishlar yuz berdi. Ijtimoiy xizmatlar, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarda olib borilayotgan islohotlar, aholi turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan. 2020-yillarda yangi ijtimoiy siyosat dasturlari ishlab chiqildi, bu esa ijtimoiy sohadagi o'zgarishlarni yanada tezlashtirdi.

### Ijtimoiy Sohada O'zgarishlar

#### 1. Ta'lim Sohasidagi O'zgarishlar

O'zbekistonda ta'lim tizimida ko'plab islohotlar amalga oshirildi. Yangi ta'lim dasturlari, pedagogik metodologiyalar va zamonaviy texnologiyalar joriy etildi. Bu yosh avlodni zamonaviy talablar asosida tarbiyalash va ta'lim ko'rsatkichlarini oshirishga xizmat qilmoqda.

#### 2. Sog'liqni Saqlash Sohasida Islohotlar

Sog'liqni saqlash tizimida ham bir qator islohotlar amalga oshirildi. Tibbiyot muassasalarida xizmatlar sifatini oshirish, tibbiy texnologiyalarni joriy etish va aholining tibbiy yordamga bo'lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqildi.

#### 3. Ijtimoiy Xavfsizlik va Qo'llab-quvvatlash

Ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan dasturlar yordamida kam ta'minlangan qatlamlarga yordam berilmoqda. Moliya yordam, subsidiyalar va turli ijtimoiy xizmatlar orqali ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun choralar ko'rilmokda. O'zbekistonda demokratik islohotlar amalga oshirilayotgan hamda bozor iqtisodiyotiga o'tilayotgan bir davrda ijtimoiy muammolarga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonning o'z tiklanish va taraqqiy etish yo'liga asoslangan tamoyillardan biri ham bu kuchli ijtimoiy siyosatdir. Kuchli ijtimoiy siyosat deganda "O'zbekistonning har bir fuqarosi millati, dini va e'tiqodidan qat'iy nazar shaxs sifatida shakllanishi, o'z qobiliyatini namoyon etishi, hayotini yanada farovon, munosib, ma'naviy boyroq qilishi uchun" zarur sharoitlarni yaratishga qaratilgan aholini ijtimoiy himoyalash bo'yicha ijtimoiy kafolat va choralarning ta'minlanishi tushuniladi. Fuqarolarga natijali ijtimoiy ko'makni ko'rsatish imkonini beruvchi aholini ijtimoiy himoyalash tizimining vujudga kelishi ushbu yillardagi ijtimoiy siyosatning tabiiy yutuqlaridan bo'lib hisoblanadi. Mustaqillik yillari mobaynida mavjud real iqtisodiy va demografik vaziyatni inobatga olgan holda bozor iqtisodiyoti sari sari bosqichma bosqich o'tish asnosida aholini ijtimoiy himoyalash mexanizmi yaratildi. Dastlabki bosqichlarida bu barcha aholini ijtimoiy himoyalalanishini ta'minlovchi yo'li bo'lib, u o'z o'rnida insonlar hayoti darajasining keskin ravishda tushib ketishini oldini olish, mamlakatda turg'unlikni saqlab qolish imkoniyatini berdi. Islohotlarning chuqurlashib borishi barobarida aholiga manzilli yordam ko'rsatilishiga katta e'tibor qaratildi. Barcha nafaqa va yordam pullari oilalarga berila boshlandi, bunda asosiy e'tibor kam ta'minlangan oilalar, qariyalar va bolalarga qaratildi. Aholining turli qatlamlariga differensial



yondoshish zamonaviy ijtimoiy himoya tizimining o'ziga xos tomonlaridan biridir. O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimi rivojlanishining zamonaviy bosqichi barqaror iqtisodiy o'sish, aholi hayoti tarzining sifat jihatidan yaxshilanilishiga asoslangan. O'zbekiston Respublikasi keng ko'lamlı iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar yo'lidan ishonch bilan bormoqda. Mamlakatimiz iqtisodiyoti jadal rivojlanishda davom etmoqda. Shunday qilib, 2019-yilning birinchi yarmida yalpi ichki mahsulotning o'sishi 5,8 foizni tashkil etdi, bu asosan sanoatning jadal o'sishi 6,9 foiz va investitsiyalar o'sishi qariyb 58,9 foiz hisobiga ta'minlandi.

O'zbekiston iqtisodiyotining deyarli uchdan bir qismi sanoatga to'g'ri keladi. Yiliga 60 milliard kub metr dan ortiq tabiiy gaz, 750 ming tonna neft, 2 million tonna gaz kondensati, 4 million tonna ko'mir qazib olinadi. Rangli metallurgiya (mis, rux, molibden, volfram, platina guruhi metallari) va qimmatbaho metallar (oltin, kumush) uchun rivojlangan xomashyo bazasiga ega, bu esa xom ashyo yetkazib berish bilan bog'liq xatarlarni minimallashtirish imkonini beradi. Mahalliy xomashyo asosida kimyo sanoatida har xil turdagi azotli, fosforli va kaliyli o'g'itlar, sintetik tola va iplar, ammiak, soda, kauchuk mahsulotlari, polimer mahsulotlari va boshqalar ishlab chiqariladi. To'qimachilik sanoati jadal rivojlanmoqda. 2025-yilgacha mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan paxta tolasini to'qimachilik klasterlarini tashkil etish orqali to'liq qayta ishlash vazifasi qo'yildi. Boy mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan innovatsion va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni rivojlantirish bo'yicha o'rta o'rta muddatli istiqbolga mo'ljallangan tarmoq maqsadli dasturlari ishlab chiqildi va amalga oshirilmoqda. Sug'orma dehqonchilik mamlakat oziq-ovqat xavfsizligining asosidir. O'zbekiston meva- sabzavot, meva va uzum, pilla, qorako'l mo'yna va jun yetishtirish bo'yicha jahonda yetakchi o'rinni egallaydi. Bugungi kunda qishloq xo'jaligida tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda: paxta va g'alla yetishtirishning eskirgan kvazidavlat tizimi o'rniga xususiy sektorga tegishli va bozor tamoyillari asosida faoliyat yurituvchi zamonaviy agrosanoat klasterlari faol joriy etilmoqda. Hozirda ular mamlakatimizda yetishtirilayotgan paxtaning yarmidan ko'pi (52 foizi) yetishtirmoqda. Qishloq xo'jaligini diversifikatsiya va modernizatsiya qilish ishlari olib borilmoqda, jahon bozorida xaridorgir bo'lgan yangi meva-sabzavot turlari joriy etilmoqda. Dunyoning 80 ta davlatiga 180 turdan ortiq qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksport qilinmoqda bu mamlakat eksportining 20 foizini tashkil etadi. 2019-2021-yillarda yangi ish o'rinlari tashkil etildi, aholi bandligi va daromadlarini oshirish maqsadida xizmat ko'rsatish va servis sohasini, ayniqsa, mehnat bozori keskinlashgan hududlarda rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. 2018-yil yakuni bo'yicha respublika iqtisodiyotida xizmatlarning ulushi 35,6 foizni tashkil etdi. Moliya, arxitektura, aloqa, axborotlashtirish oliya, arxitektura, aloqa, axborotlashti va sog'liqni saqlash sohalarida xizmat ko'rsatish sohasida yuqori o'sish sur'atlariga erishilmoqda. Turizm

iqtisodiyotning muhim raqobatbardosh sektoridir. Bu yerda qonunchilik bazasini takomillashtirishga qaratilgan katta islohotlar ham amalga oshirilmoqda birgina 2018 yilning o'zida 25 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida 2018-yilda sayyohlar oqimi qariyb 5,3 million kishini tashkil etdi, bu 2017-yilga nisbatan ikki baravar ko'pdir. O'zbekiston etdi, bu 2017-yilga nisbatan ikki dunyoning barcha davlatlari bilan iqtisodiy hamkorlik uchun ochiq. Xorijiy va mahalliy investorlarni jalb qilish uchun eng qulay davlat rejimini yaratish nazarda tutilmoqda. Islohotlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlari ijtimoiy siyosat, aholi uchun munosib turmush sharoitini ta'minlash masalalari bo'lib qolmoqda. Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va ijtimoiy nafaqalar sezilarli darajada oshirilib, 2018 yilda aholining real daromadlari 12 foizga oshdi. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, islohotlar jarayonida nafaqat qonun hujjatlarini o'zgartirish, balki strategiyalarni ishlab chiqish eng murakkab vazifadir. Asosiysi, odamlarning dunyoqarashi va tafakkurini o'zgartirish. O'zbekistonda 2017-yilning birinchi yarmida 84,3 mingta ish o'rni yaratildi. Shuningdek, 13 ming 399 ta loyiha amalga oshirildi, 10 ta erkin iqtisodiy zona, 5 ta kichik sanoat zonasi tashkil etildi. Tadbirkorlikni rivojlantirish va yangi ish o'rinlari yaratish uchun 2,1 trillion so'm miqdorida kreditlar ajratildi. Shaharlarda energiya Shaharlarda energiya tejamkor arzon ko'p qavatli uylarni qurish va rekonstruksiya qilish dasturi tasdiqlandi va amalga oshirilmoqda. Dastur doirasida 1136 ta ko'p qavatli uy quriladi. Kvartiralarining umumiy soni 50 ming 286 tani tashkil etadi. Shuningdek, qishloq joylarda 75 mingta turar-joy binolari quriladi.

#### **Foydalanuvchi adabiyotlar:**

1. O'zbekiston ta'limi: o'zgarishlar va natijalar. (2022). Tahririyati: Ibragimov, T.
2. Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar. (2021). Tashkent.
3. Jamiyat va ijtimoiy siyosat. (2020). Tahririyati: Karimova, S.
4. Ijtimoiy xavfsizlik va aholi demografik holati. (2019). Buxoro.
5. Qodirov, M. (2023). O'zbekistonda ijtimoiy o'zgarishlar: Muammolar va yechimlar. Tashkent..